

SANOQ SONDA „BIR“ SO'ZINING QO'LLANILISHI

Arzimurodova Dilsevar

Sarimsoqova Sevinch

SamDU Kattaqo'rg'on filiali 2-bosqich talabalari

Annotatsiya: Sanoq sonda „bir“ so'zining qo'llanilishi. „Bir“ sanoq soni ayrim xususiyatlari bilan boshqa sonlardan ajralib turadi. Ikki, besh, sakkiz kabi sonlar ot bilan bog'lanib, uning miqdorini aniqlaydi. Bir so'zida esa konkret miqdor bildirish xususiyati ancha kuchsizlashgan, chunki, narsaning birligi, tanholigi, yakka ekanligi o'tning birlik shakli orqali ham ifodalanadi. „Bir“ soni, gap ichida turli xil ma'nolarni bildirib kela oladi. U vaqtda son ma'nosida emas, aksincha o'zining ma'nosidan tubdan farq qiladigan o'rinlari ham bor.

Kalit so'zlar: Bir, bog'lovchi, yuklama, numerativ so'zlar, kesim, chegaralov.

Annotaziya: Sayımda "bir" kelimesinin kullanımı. "Bir" sayısı bazı özellikleriyle diğer sayılardan ayrılır. İki, beş, sekiz gibi sayılar bir isimle ilişkilendirilir ve onun miktarını belirler. Tek kelimeyle somut niceliği ifade etme özelliği çok daha zayıftır, çünkü şeyin birliği, yalnızlığı, tekiliği de ismin tekil hali ile ifade edilir. "Bir" sayısı bir cümlede farklı anlamlar ifade edebilir, aynı zamanda bir sayı anlamına da sahip değildir, aksine anlamından tamamen farklı yerleri vardır.

Anahtar kelimeler: Bir, bağlaç, edat, kelime sayısı, katılımcı, sınır, fiil

Bir so'zi haqida

1. Hisob, miqdor, o'lcham, chama ma'nolarini anlatuvchi numerativ so'zlar bilan kelib, narsalarning miqdorini, o'lchamini anglatadi: bir so'm, bir hafta, bir dasta, bir gektor, bir qadam, bir juft, bir tup, bir dona, bir qop, bir zum, bir kosa, bir to'da, bir o'ram, bir soat, bir burda kabi. Masalan; Bir zum ikkilanib turdi. Qoraboy bir hafta ishga chiqmadi.

2. Ba'zi otlardan oldin kelib, noaniqlik tushunchasini ifodalaydi va qandaydir, allaqanday, allaqaysi, kimdir, nimadir kabi olmoshlarga sinonim bo'ladi. Masalan: Sizni bir odam (kimdir) so'rab kelgan edi.

3. Har, vaqt, kun, fasl, qadar, yil kabi so'zlar bilan kelib, ta'kidlash, ajratib ko'rsatish, gumon kabi ma'nolarni bildiradi. Masalan: Bir kun bir yilni boqadi.

4. Chegaralov ma'nosini bildiradi (bunda u faqat yuklamasiga sinonim bo'ladi). Masalan: Hammamiz imtixonlardan yaxshi o'tdik, bir (faqat) Ahmadjonning mazasi bo'lmadi. Mehri kasalxonada uzoq yotib qoldi, undan birgina (faqat) Niso buvi xabar olib turardi.

5. Fe'lga bog'lanib, uning ma'nisini kuchaytiradi (bunda u juda so'ziga sinonim bo'ladi). Masalan: Omadimiz kelgan ekanmi, yo qurt tutishni sog'inib qolgan ekanmizmi – bir bo'lib berdi, qani endi terib tamom qilsak!

6. Takroriy shaklda fe'lga bog'lanib, harakatning belgisini, uning tartib, navbat bilan bajarilganligini bildiradi (bunda u holat ravishlariga sinonim bo'ladi). Masalan: O'ktam kabinetda o'tirganlarga bir- bir qarab chiqdi.

7. Ayiruv bog'lovchilari vazifasida kelib, gapning uyushgan bo'laklarini yoki qo'shma gap qismlarini bog'lashga xizmat qiladi va voqea – hodisalarning galma – gal bo'lganligini bildiradi (bunda u dam , goh bog'lovchilariga sinonim bo'ladi). Masalan: Bir kattaning gapiga kir, bir kichikning gapiga kir.

8. Fe'llar oldidan kelib, fe'ldan anglashiluvchi ish – harakatning bir marta bajarilishi yoki yuz berishini ifodalaydi (bunda u marta so'ziga sinonim bo'ladi). Masalan: Yetti o'lchab bir (marta) kes.

9. Belgi – xususiyat ifodalovchi so'zlar oldidan kelib, o'sha so'z ma'nosining kuchayishiga xizmat qiladi. Masalan: O'g'li bir yaxshi yigit ekan, bir kelishgan, chiroyli...Boya Mahvash bir chiroyli gap aytdi.

10. Ajratib, ta'kidlab ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Masalan: Kamtarlik ham bir xislat.

11. Kesim vazifasida kelganda , birdamlik, umumiylik yoki bir xillik, o'xshashlik ma'nolarini ifodalaydi. Masalan: Kemaga tushganning joni bir.

12. Ba'zi otlar bilan qo'llanganda, "shunday" , "shunaqa" so'zlariga teng kelib, bo'rttirish ma'nosini ifodalaydi. Masalan: Bir (shunaqa) o'lkaki, tuprog'ida oltin gullaydi.

13. Vaqt, zum, payt, yil, oy, kun, mahal, muncha, oz, qancha, ba'zi, har, hech kabi so'zlar bilan qo'shma so'z hosil qilib, aniqlovchi, hol vazifalarida keladi. Masalan: Bir ozdan keyin u kiyinin olib, yo'lga otlandi.

14. Tenglik ma'nosini bildiradi (bunda u teng so'ziga sinonim bo'ladi). Masalan: Qonun oldida hamma bir.

Sanoq sonlar narsalarning miqdorini domlab sanash yo'li bilan ham ko'rsatadi. Bu vaqtda sanoq sonlarga -" ta" affiksi qo'shilib keladi. Masalan: Uchta bola, oltita daftar, beshta uy kabi. Mirzayev shoshib qolib bir kunning o'zida Latofatxonaga ikkita xat yozdi.

15. Predmetni aniqlab, uning sonini ko'rsatadi. Bu vaqtda u miqdor bildiruvchi hisob so'zlari (numerativlar) bilan ishlatiladi: bir so'm, bir gektar, bir qadam, bir juft, bir tup (gul), bir dona (kitob), bir qop (un), bir kosa (ovqat) kabi.

16. Predmetni aniqlab, "Noaniqlik ma'nosini bildiradi (bunda u qandaydir olmoshiga sinonim bo'ladi) Masalan: Qiz Toshkentdan vakil bo'lib kelgan bir kishi bilan gaplashmoqda edi.

„Bir“ so'zi juftlashib, takrorni hosil qilganda, boshqa ma'nolarni bildiradi.

Bir-biri bilan

Biri biri bilan, biri ikkinchisi bilan, o'zaro.

- Bir-biri bilan telefon orqali so'zlashmoq. Bir-biri bilan ko'rishmoq.

• Ular bir-birlari bilan o'chakishganday, xurrakni daraja-badaraja oshirishga tirishadi. Oybek, "Tanlangan asarlar"

• Bir-biri bilan shivirlashib, institutdan haydatish haqidagi gaplarni tarqatganday bo'lishardi. Mirmuhsin, "Umid"

Bir-biriga

1. Biri ikkinchisiga.

• Hamma hayron bo'lib, bir-biriga qaradi. P. Tursun, "O'qituvchi"

• Yana kulgi bir-biriga ilashdi. A. Qodiriy, "O'tgan kunlar"

• Darhaqiqat, bir-biriga o'xshamagan nonlar tarashadek qotib qolgan edi.

A. Qodiriy, "Mehrobdan chayon"

2. Biri biriga nisbatan, biri biri bilan, o'zaro.

• Bir-biriga zid tushunchalar.

• Hovuzning narigi chetiga bir-biriga yaqin o'tkazilgan uch tup olma daraxti. Oybek, "Tanlangan asarlar"

• Lutfinisa oppoq, yursa so'lgillaydigan, ikki qoshining uchi bir-biriga tutash, bo'yi sal pastroq to'lagina qiz. S. Ahmad, "Ufq"

3. (Tushum kelishigi bilan) birini ikkinchisiga, birini ikkinchisi bilan. Qo'llarni bir-biriga ishqalamoq.

• U [Yo'lchi] jo'rttaga, loqaydlik bilan ikki qolipni bir-biriga urib so'radi. Oybek, "Tanlangan asarlar"

• Maxdum mulla Abdurahmon bilan Anvarni bir-birlariga tanishtirdi.

A. Qodiriy, "Mehrobdan chayon"

Bir-biridan

1. (Chiqish kelishigi bilan)

2. Biri ikkinchisidan. Bir-biridan o'rnak olmoq.

• Odamlar to'planishib, bir-birlaridan so'rashadi.

Oybek, "Tanlangan asarlar"

• Chodirlarning rangi bir-biridan farq qiladi. "Fan va turmush"

3. Biri biriga nisbatan.

• Bir-biridan chiroyli. Bir-biridan shirin. Bir-biridan uzoq joylar;

4. Birini biridan, birini ikkinchisidan.

• Bog'chalarni bir-biridan ayirgan devorlar.

• Men bilan Otabekni qamatib, dor ostiga yuboruvchi, Otabek tilidan soxta taloq xati yozib, bir-birimizdan judo etuvchi battol Homid ekan.

A. Qodiriy, "O'tgan kunlar"

Bir-birini

Biri birini, biri ikkinchisini, o'zaro.

• Bir-birini sevmok.

• Xotinlar bir-birlarini siylab, bir-birlariga yo'l ko'rsatib mehmon opa ketidan uyga birin-ketin kirishdi.

Bir-biri uchun

Biri ikkinchisi uchun, ikkinchisi birinchisi uchun.

- Agar odamlar bir-biri uchun mehnat qilsa, yer yuzining o'zi jannat bo'ladi. A. Qahhor, "Mirzo"

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qalandar Sapayev "Hozirgi o'zbek tili" Toshkent - 2009. www.ziyouz.com kutubxonasi.
2. "O'zbek tili grammatikasi" I tom morfologiya, Toshkent - 1975 www.ziyouz.com kutubxonasi.
3. Sayfullayeva R.R, Mengliyev B.R, Boqiboyev G.H, Qurbonova M.M, Yunusova Z.Q, Abduzalolov M.Q. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" Toshkent - 2010
4. <https://izoh.uz/word/bir-biri>